



XIX ASR YEVROPA HAYKALTAROSHI. OGYUST RODEN HAYOTI VA IJODI.

*O'zbekiston Respublikasi, Toshkent,
Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
"Sanoat dizayni" kafedrasida katta o'qituvchisi,
Abdusalomova Shohida Kamiljanovna
O'zbekiston Respublikasi, Toshkent,
Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
Sanoat dizayni kafedrasida talabasi, Ergasheva Muxlisa Rustam qizi*

Annotatsiya: Haykaltaroshlik insoniyat tarixi davomida tasviriy san'atning eng muhim turlaridan biri bo'lib, u kishilarning badiiy, estetik va psixologik hayotiga o'ziga xos ta'siri tufayli xotiralarda saqlanib qolgan. Qadimda totem sifatida qo'llanilgan haykallar ma'lum vaqt o'tib tarixni aks ettirib, kelajak avlodlarga yetkazgan, keyinchalik evolyutsiya jarayonida insonlar hayotining estetik didi, his-tuyg'ulari, his-tuyg'ularini aks ettira boshlagan. Maqolada Fransuz xalq haykaltaroshi Ogyust Roden hayoti va ijodi yoritilgan. Uning Fransiya tasviriy san'atidagi o'rni, ijodi va o'rni haqida batafsil ma'lumot berilgan.

Kalit so'zlar: haykaltarosh, Roden, Yevropa haykaltaroshi, Do'zoq eshiklari, Fikrlovchi (Mislitel).

Ogyust Roden – 1840-yil 12-noyabrda Parijda tug'ilgan. Uning otasi jan-batist Roden Imporator administratsiyasi xizmat qilgan. Roden yoshligida rasim chizishga qiziqardi, 14 yoshida rassomlar dekorativ rassomlar tayyorlanadigan kichik maktabga o'qishga kirdi maktabni bitirgandan so'ng 3 marta tasviriy san'at maktabiga o'qishga kirishga urunib ko'rdi ammo muvofaqiyatsizlikka uchradi. Ushbu davrdan boshlab Roden ko'p yillar davomida jamoat ishlarida shogird dekorator xaykaltarosh sifatida

ishlagan. Roden bo'yoqchi va dekorativ sifatida juda ko'p ishlaydi. Uni o'sha davrdagi ishlari anonim ravishda bo'gan, ularning aksariyatini aniqlash mumkin emas, ko'plari saqlanib qolmagan. 1864-yilda Roden tikuvchi Roza bilan tanishib qoldi, va ular birga yashaydi. 1866-yilda ularning o'g'li Ogyust tug'iladi va ularni qonuniy nikohi bo'lmaganligi uchun familiyani onasi beradi. Roza juda jozibali ayol bo'ladi va Rodenning ba'zi dastlabki asarlari uchun suratga tushgan. Gulli qalpoqli qiz (1865-1870)




1-rasm. «Gulli qalpoqli qiz»



(1870) byustlari va “Vakxanka” Roden Roza bilan tanishganidan so‘ng eski otxonani ustaxonaga aylantiradi. 1864-yilda Rodin ismli osha yerda yashovchi odamning byustini ishlaydi. Bu byust burni singani bilan ajralib turadi. Ustaxonasi sovuq bo‘lgani uchun uning

byusti yorilib ketadi. Ammo bu Rodenning “Burni singan odamni” Parij saloniga yuborishga to‘sqinlik qilmadi. Xunuk ajinlar va chandiqlar bilan qoplangan yuzga akademiya go‘zallik qonuniga qarshi chiqqan xayka deb rad etildi.



2-rasm. « Burni singan odam »

Bryuselda Roden xususiy uylar birja binosi uchun bir nechta xaykallar yaratadi. Bu ishlardan tashqari Roden kare-belyoz uchun xaykallar yasaydi. Kary-belyoz u ham xaykaltarosh bo‘ladi. Rodenning ustozlari Kare uni yasagan asarlarini o‘zining nomi bilan chiqaradi va bir safar bitta xaykalni Rodenning nomi bilan namoyish etadi, buni bilgan Kare Rodenni ishdan bo‘shatadi. Roden Antuan Jozef bilan Belgiyada ko‘rgazmalar uyushtradi va Fransiyada ancha taniqli bo‘ladi. 1875-yilda Roden yana salonga “burni singan odamni” taqdim etadi. Bu safar salon juriylari marmar byustni qabul qilishadi. 1876-yilda Roden Itlayiga sayoxat qiladi va u yerda Genyu Florensiya, Rim Neopol va Venetsiyada bo‘ladi. Rodenning asosiy maqsadi uyg‘onish davri san‘ati o‘tmishdagi buruk xaykaltaroshlar Mikelandjelo va Donatellaning ijodi bilan yaqin tanishish. Roden Italiydana qaytgandan so‘ng u 18 oy davomida bronza davri

nomi bilan mashxur bo‘lgan asar ustida ishlaydi. Bu xaykalni Roden Mikelandjeloni «O‘layotgan qul» asaridan ilxomlanib yaratdi. Roden ko‘plab san‘at arboblari tomonidan qo‘llab-quvvatlandi. 1880-yilda bronza quyilgan xuddi shu xaykal salonga yana bir bor namoyish etildi.

Aynan shu xaykallarini yaralishi shunday bo‘ldi. Bir kuni Rodenga o‘zining xaykalini yaratishni italiyalik dehqon kelib aytadi. Dehqon chiroyli fizikaga ega bo‘lgan kelishgan inson edi. Ayniqsa Roden yurish paytida uning xarakterlaridan xayratga tushadi. Natijada shu ikkita xaykalni yaratadi. 1880-yilda Roden 1-martta davlatdan buyurtma oladi. U Parijning san‘at muzeyining orqa eshigini xaykallar bilan bezatishi kerak edi. Xaykaltarosh buyurtmachi tomonidan belgilangan muddatni bajara olmadi. Xaykaltarosh buyurtmaning ustida ishlashni davom ettirdi.



3-rasm. « Do'zax eshiklari »

Bu asari “Vorota ada” (“Do'zax eshiklari”) bitira olmadi. Bu asari xaykaltaroshni vafotidan so'ng bronza bilan quyilgan. 7 metrlik “Do'zox eshiklari” 186 ta figurani o'z ichiga oladi. Ularning asari aksariyati “O'tkinchi sevgi”, “O'pish” shuningdek “Odam” va “momohavo” kompozitsiyalarini alohida haykallari ham ishlagan. Rodenning eng mashxur asari va jahon tarixdagi eng taniqli xaykaltaroshlik obrazlaridan biriga aylangan “Mislitel” (“Fikrlovchi”).

Roden bu asarida jismonan kuchli intellektual qudratini o'zida mujassam etgan shoir faylasuf va ijodkorning universal adabiy qiyofasiga aylantirdi. 1881-yil Roden Londonda yashagan rassom Alfonso Legro ustaxonasiga tashrif buyurdi keyinchalik u bilan do'st bo'adi va undan o'ymakorlik san'atini o'rganadi. 1889-yilda Kloud Mone va Roden qo'shma ko'rgazma o'tkazishdi. Ushbu ko'rgazmada Rodenning jami 36 ta xaykallari va Monening 70 dona rasmlari namoyish etildi. Rodenning boshqa yirik asarlari orasida fansuz adabiyotidagi eng muxim shaxslardan ikkitasi Viktor Gyugo va Onere de Balzaku yodgorliklari mavjud. Roden Gyugo xaykali uchun buyurtmani 1886 yilda olgan. Rassomning bu asari xam buyurtmachining talabiga javob bermadi. Rodenning yana bir asari 1891-yilda adabiyotchilar jamiyati asosan uning

prizident Rodenga Balzakning yodgorligini bo'lib yasashga 2 yil muddat bilan buyurtma beradi. Xaykalni yaratish uchun bir necha eskizlar qiladi va tezda shuni boshlaydi. Ammo Roden yana aytilgan paytga ulgurmaydi va buyurtmachi kelib bitmagan ishni ko'rib xavfsalasi pir bo'ldi. Tugallanmagan yodgorlikni ommaviy namoyishi 1898-yilda salonda bo'lib o'tadi va janjalga sabab bo'ladi. Ko'plab tanqidlar va shu bilan birga qo'llab-quvvatlovchilar bo'ldi. Yozuvchilar jamiyati asarni qabul qilishdan bosh tortadi. Roden unga to'langan boshlang'ich mablag'ni qaytarib beradi va xaykalni saqlab qoladi. 1939-yildagina bu yodgorlik Parijga qo'yilgan.

1895-yilda Roden Parij yaqinidagi Briyan villasini sotib oldi va u yerni ustaxona qildi. Daromadi yaxshilangani tufayli vaqtini ko'proq ijodga bag'ishlay boshladi. Fransiya hukumati 1900-yilda bo'lib o'tgan butun jahon ko'rgazmasida butun pavilionni taqdim etdi. Xaykaltaroshning “Burni singan odam” ishinin aylanma ko'rgazma uchun 136 ta xaykal va 14 ta tugallanmagan asar tanlab olindi, ular orasida birinchi marta “Do'zox eshiklari” namoyish etildi. Ko'rgazma Rodenga dunyo muzeylariga taxminan 200 ming franklik xaykallarni sotishga imkon berdi. Keyinchalik Roden o'zini ajoyib



chizmach va grafik rassom sifatida namoyon qildi. Agar yoshligida modellar bilan eskizlar unga qiyinlik qilgan bo'lsa vaqt o'tishi bilan u modeldan ko'zlarini uzmasdan chizmalar yaratishni o'rgandi. 1897-yilda kolleksioner Moris Rodenning eskizlarini 125 nusxada albom nashr etadi. Albom bir zumda sotiladi. 1900-yilda Roden bir qancha taniqli insonlarning buyurtmalarini doim olib turar edi. 1914-1915 yilda Roden Rimga "Papa-Benedikt"ni portretini ishlashga boradi. Ammo bu asari rim papasiga yoqmaydi. Buni u "Mongolskogo generala" ga o'xshab chiqqan deb tarif beradi. Roden xar xil tanqidlar ketidan qo'llab-quvvatlash bilan shunchalik taniladiki boshqa shaxarlardan xam uni ustaxonasini ko'rgani qirollar keladi.

1908-yilda Roden o'zining ustaxonasi bron mexmonxonasi birinchi qavatiga ko'chiradi va umrining oxirigacha usha yerda ishlaydi. 1916-yilda Roden o'zining vasiyatnomasini imzolaydi. Unga ko'ra uning barcha asarlari qo'lyozmalari davlatga o'tkaziladi. Bunga sabab Roden yoshi o'tgan sari go'zal ayollarni ko'p yaratgan va eskiz chizgan va aynan taniqli va mablag'i yetarli bo'lgan paytda uni mashuqalari o'rab olib va ular uni asarlarini talon taroj qilish maqsadida edi. 1916-yil 19-yanvar kuni Modenadagi villada Roden va Rozaning to'yi bo'lib o'tadi. Ammo Roza og'ir kasal edi. To'ydan 25 kun o'tib u vafot etadi. 1917-yil 17-noyabrda esa Roden pnevmoniya bilan vafot etadi. Rodenning qabri tepasiga misletelning nusxasi o'rnatiladi.



Roden asosan asarlarida insonlarning xarakatini chizishni yaxshi ko'rgan. Uning naturshiklari asosan yechingan xolda uni atrofida

aylanib yurgan va u eski qog'ozga eskizlar chizgan loydannchenovik qilib yasab olgan. Roden xech qachon naturani o'tkazib chizmagan.

Foydalanilgan adabiyotlar :

1. I.V. Dmitrieva SAN'AT TARIXI (1-qism) Учебная поссoba // Toshkent -2020. С. 1-204
2. Рахманов Ж.М. Концепция развития рекламного искусства // Наука, образование и культура. 2020. №6 (50). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/kontseptsiya-razvitiya-reklamnogo>.
3. Абдусалымова Ш. К. Национальные куклы в Узбекистане //Наука, образование и культура. – 2019. – №. 6 (40). – С. 83-85.
4. Kamiljanovna A. S. Corrugation and its Application in Furniture Design //American Journal of Social and Humanitarian Research. – 2022. – Т. 3. – №. 1. – С. 123-128.
5. Абдусалымова Ш. К. Дизайн плиты и вытяжки для современного интерьера //Наука, образование и культура. – 2020. – №. 5 (49). – С. 67-69.



6. Абдусалымова Ш. К. и др. АРХИТЕКТУРА ПЕРИОДА ВЕЛИКОЙ ФРАНЦУЗСКОЙ РЕВОЛЮЦИИ. АРХИТЕКТУРА ПЕРИОДА НАПОЛЕОНА // " USA" INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE TOPICAL ISSUES OF SCIENCE. – 2023. – Т. 8. – №. 1.

<https://www.intereuroconf.com/index.php/ispc/article/view/3636>

7. Абдусалымова Ш. К. История игрушки // Наука, образование и культура. – 2019. – №. 6 (40). – С. 80-82.

9. Kamiljanovna A. S. et al. FRANZIYA SAN'ATI. BARBIZON MAKTABI. TEODOR RUSSO, JAN FRANSUA MILLE // "SPAIN" PROBLEMS AND PROSPECTS FOR THE IMPLEMENTATION OF INTERDISCIPLINARY RESEARCH". – 2024. – Т. 17. – №. 1.

<https://www.intereuroconf.com/index.php/ispc/article/view/3636>

10. Одилова С. Д. История создания предметов мебели у народов среднеазиатского региона // Проблемы науки. – 2020. – №. 6 (54). <https://cyberleninka.ru/article/n/istoriya-sozdaniya-predmetov-mebeli-u-narodov-sredneaziatskogo-regiona/viewer>

11. Одилова Сайёра Джавдатовна Эстетические составляющие творчества ювелирных мастеров // Наука, образование и культура. 2019. №6 (40). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/esteticheskie-sostavlyayuschie-tvorchestva-yuvelirnyh-masterov>

12. Рахманов Жахонгир Мамашарибович. Разработка концепции дизайна рекламного проекта // Наука, образование и культура. 2020. №3 (47). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/razrabotka-kontseptsii-dizayna-reklamnogo-proekta/viewer>

13. Ахмеджанова Умида Баходировна Искусство и архитектура XV века в Италии // Наука, образование и культура. 2020. №5 (49). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/iskusstvo-i-arhitektura-xv-veka-v-italii>

14. Bakhodirovna, Akhmedjanova Umida. "Baroque Art and Architecture in France." American Journal of Social and Humanitarian Research 3, no. 6 (2022): 480-483.

<https://globalresearchnetwork.us/index.php/ajshr/article/view/1328/1249>